

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI

To‘ymurodova Gullola Normurod qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

e-mail: gulituyumurodova0722@gmail.com

Telefon: +998917982527

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya va uning fojiali oqibatlari, kelajak avlodlar hayotiga ta’siri haqida atroflicha fikr yuritilgan. Eng rivojlangan davlarlardagi korruption holatlar tahlil qilingan. Bundan tashqari yangi O‘zbekistonni bunyod etishda amalga oshirilayotgan islohotlarni turli korruption holatlardan holi amalga oshirish chora-tadbirlari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’z: Korrupsiya, adolat, siyosat va jamiyat, komil inson, qonun, loyiha, g’oya, strategiya, diniy va dunyoviy ilm, rivojlanish, integratsiya,

“Adolatli va yetuk komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin”

Sh. Mirziyoyev

Dunyo. Inson. Jamiyat. Bular bir-biridan ajralmas va bir-birini to`ldiruvchi, biri boshqasisiz vujudga kelolmaydigan tushunchalardir. Dunyo yaralibdiki, insoniyat bor va u doimiy rivojlanish va o`zgarishda. Ma’lum fikr, g’oya mushtarakligi asosida birlashgan kishilar jamoasi jamiyatni tashkil etadi. Jamiyat esa kishilik taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega. Tarixdan ma’lumki, odamzod urug‘, qabila bo’lib yashagan davrlardan to bugungi kungacha necha ming asrlarni bosib o`tdi. Insoniyat ongi shu darajada rivojlandiki, ilm-fan sohasida juda katta yutuqlarga erishdi. Buning natijalari o’larоq, dunyo taraqqiyotning eng yuksak cho`qqisiga chiqib bormoqda. Lekin, tanganing ikkinchi tomoni bo`lgani kabi bu rivojlanish va yuksalishlarning ham ildiziga bolta urayotgan, to`sinqlik qilayotgan holatlar ham bor. Bu jamiyat illatlaridan biri-Korruptsiya. Yer yuzida davlat va jamiyat paydo bo`lganidan buyon odamzod poraxo’rlik va korrupsiya ya’ni taraqqiyot va farovonlikning kushandasi hisoblanmish, jamiyatda adolat, tenglik, sog’lom raqobat va halollik tamoyillari ustun bo`lishiga to`sinqlik qilayotgan ijtimoiy illatlardan biri, deb baholab kelgan va unga qarshi bugungacha kurashib kelmoqda. Dunyo hamjamiyatining birdan bir umumbashariy orzusi ham korruptionsiyadan xoli jamiyat qurish hisoblanadi. Bir o‘ylab ko`ring, bugungi kunda global muammolar sirasiga kiritilgan ushbu illat bo`lmaganda, balki insoniyat

ilm-fan, ixtiolar va ko`plab sohalardagi yutuqlarga bir necha yuz yillar oldin erishgan bo`larmidi?! Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham avj olgan korrupsiya muammosi barchani birdek hushyorlikka chorlaydi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda yer sharida biror davlat yo`qki, korrupsiya kirib bormagan, korrupsiya rahna solmagan bo`lsa. Hattoki, eng kichik davlat hisoblanmish Vatikanda ham aholi korruksiyaga qarshi kurashib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotiga soya solib turgan bu kabi illatdan dunyoni qachon butkul xalos etamiz? Bu umumbashariy orzu barchani birdek bezovta qilishi va bu holatlar yuzaga kelmasligi, avj olmasligi uchun o`zgarishni har birimiz eng avvalo o`zimizdan boshlashimiz kerakligini chuqur anglab yetishimiz zarur. Shundagina ko`zlangan maqsadga erisha olamiz. “Baliq o`zi suzayotgan suvni ichishini aniqlab olish mumkin bo`lmaganidek, mansabdor shaxslar o`zlariga topshirilgan mulkni o`g`irlaydimi yo`qmi, aniqlash oson emas,”- degan fikrni ilgari surar ekan Hindiston Maurya imperiyasining amaldori Chanakya davlat boshqaruvi haqidagi risolasida davlatdan o`g`irlik qilishga imkon beruvchi 40 usulni ko`rsatgan.Olis o`tmishda mintaqamizda dunyoga kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda “haqqoniy hukm chiqarish, pora olmaslik, to`g`ri guvohlik berish va to`g`ri gapirish” ijobiy xislatlar sifatida ulug`langan bo`lsa, aksincha, “Ko`rib turibadolatsizlik, nohaqlik” qilgan amaldorlarning aytgan va qilgan yomon fikr, yomon kalom va yomon amallari qattiq qoralangan. Bundan ko`rinadiki, faqat pul yoki moddiy manbalargina pora hisoblanib qolmay, balki, bilib turib yolg`on guvohlik berish, nohaq qoralash,adolatsiz chiqarilgan hukm ham korruption holatning turlari hisoblanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vassallamdan rivoyat qilingan “Alloh pora berganni ham, pora olganni ham la`natlagandir”; “Boshliqlarning hadya va sovg`alar olishlari ham haromdir”; “Biz biror ishga boshliq qilib tayinlangan odam unga belgilangan maoshdan ortiq mol topsa, bu uning uchun haromdir” kabi hadislarni ajdodlarimiz o`z hayoti va faoliyatida dasturiyal deb bilganlar. Demak, qadim o`tmishdan to bugungi kungacha pora, korrupsiya kabi illatlarga qarshi doimiy kurash olib borib kelinmoqda. Korrupsiya keccha yoki bugun paydo bo`lib qolgan emas, balki uning tub ildizlari qadim o`tmishga borib taqaladi. Misol uchun Podsho Xammurapi qonunlariga ko`ra “Agar sudya ishni ko`rib chiqib, qaror qabul qilgan va hujjatni muxrlagan bo`lsa-yu, so`ngra qarorini o`zgartirsa, unda bu sudya fosh etilishi kerak va u ish bo`yicha da`vo summasini 12 baravar miqdorda to`lashi kerak” bo`lgan. Poraxo`rlik uchun jazo Misr firavnları, “Kambiz sudi” tufayli nomi tarixga kirgan fors shohi Kambiz qonunlarida ko`zda tutilgan . Misr firavni Ramzes I davrida korruption jinoyatlarda qo`lga olingan har bir kishi hayotining qolgan qismini qullikda o`tkazgan. Ko`ryapsizki, bu illatga qarshi kurashlar hali hanuz davom etib kelmoqda.Insoniyat, jumladan bizning buyuk ajdodlarimiz ham, qadim zamonalardan beri poraxo`rlik va korrupsiyanadan xoli davlat va jamiyat qurish orzusi bilan yashab kelganlar.

Bugungi kun, zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda Korrupsiyaning avj olishi bu taraqqiyotga qarshi ko'tarilgan eng xavfli quroldir. Korrupsiya kirib bormagan soha yo'q desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, tibbiyot va ta'lim sohalarida korrupsiyaning avj olganligi, yoinki borligining o'zi ham achinarli holdir. Chunki, ayni ilm olib, jismi kuch –g'ayratga to'lgan yoshlar ongiga korrupsiya o'z izini qoldirsa, u bora-bora katta va mustahkam qurolga aylanadi va u insonni jaholatga boshlaydi. Jaholat esa qurbanlarsiz bo'lmaydi. Buni tasavvur etish uchun oddiy bir misol keltiraman, o'qishga kirayotgan talaba ota – onasining puliga ishonib, ilmni yaxshi egallamadi vaholanki, u pora orqali o'qishga kirdi va u talaba. Ilmi yo'q, o'z sohasini yaxshi bilmaydigan bu kadr kelajakda tibbiyot xodimi bo'lsa bir bemorning hayotiga nuqta qo'yadi va bu davom etib qurbanlar sonini oshiradi. Agar u pedagog bo'lsa, bundan ayanchlisi yo'q. Chunki, qo'lida 25-30 nafar yosh nihollarni tarbiyalash vazifasi topshirilganda ularga nima bera oladi, o'zida shu ilm yo'q bo'lsa. Bu bir jamiyatni yo'q qilib yuboradigan darajada xavflidir. O'zingiz o'ylab ko'ring farzandingiz yoki nabirangizni shu pora bilan o'qishga kirib, pora bilan bir amallab bitirgan pedagog qo'liga topshirishni istarmidingiz. Yo'q! Nega unda bunday talabalar safi kengaymoqda? Bu savolni amal kursiga ishonib o'tirgan ba'zi mansabdar shaxslarga bersak qanday javob berishadi? Ular o'z hayotlarini yoki yaqinlari hayotini tibbiyot oliygohini shu zaylda tamomlagan shifokor qo'liga topshira olishadimi? Ha, javob berish mushkul shunday emasmi. Yangi O'zbekistonni biz yoshlar birgalikda ajdodlarimiz orzu qilgandek, korrupsiyanidan holi, yurtboshimiz ta'kidlagandek rivojlanishlar va taraqqiyot cho'qqisiga erishgan komil davlatni barpo etamiz. Bu yo'lida biz yosh avlod korrupsiyasiz yangi O'zbekistonimizni dunyoning qator rivojlangan davlatlar tajribasi va o'tmis saboqlaridan xulosa chiqargan holda quramiz. Kelajak biz yoshlarning qo'limizda. Yurtboshimiz ta'lkidlaganlaridek: Adolatli va yetuk komil jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin." Buyuk Amir Temur bobomiz ham aynan mustahkam sarhadli davlatni bir shior ostida birlashtirgan. Ya'ni "Kuch-adolatda"

"El aziz-inson aziz" shu bizning shior
Yurtimizda har sohada imkoniyatlar bisyor
Taraqqiyot poydevorin qilib mustahkam
Buyuk maqsad yo'lida boraylik shahdam

Aziz do'stim! Kel endi qo'lni qo'lga beraylik
Ezgu maqsadlar tomon doim olg'a boraylik
Taraqqiyot yo'lidan korrupsiya yo'qolsin!
Yangi O'zbekistonda yaxshilar nomi qolsin!

Darhaqiqat, Yangi O'zbekiston – Yangicha dunyoqarash va yangicha g'oyalalar asosida bunyod etilmoqda. Bu yo'lida yurtboshimiz bor imkoniyat va cheksiz e'tibor, ishonchni aynan yosh avlodga, bo'lajak kadrlarga qaratmoqdalar. Chunki, o'sib kelayotgan yangi avlod yaratuvchanlik g'oyalari bilan o'zida mas'uliyatni his etgan holda, turli oqim va illatlardan holi, berilgan ishonchni oqlash hissi va yaratilayotgan imkoniyatlardan o'rini foydalana oladigan kadrlar bo'lib yetishishmoqda. Yurtboshimiz ham barcha imkoniyatlar eshigini biz yoshlar uchun keng ochib bermoqdalar. Yurtdaadolat va tinchlik hukmron bo'lsa, ko'ngillar xotirjam va keljakka tomon qadamlar shahdam bo'ladi. Buning yorqin misoli sifatida shaxmatchi yoshlarimizni keltirish mumkin. Butun dunyo bo'yicha O'zbekiston bayrog'i eng balandda turib, madhiyamiz baralla yangrashiga sabab bo'lishdi. Bundan tashqari turli Xalqaro fan olimpiadalarida yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar soni ham cheksiz. Sport musobaqalaridan ham hamisha butun dunyo nigohida madhiyamiz yangraydi. Bu yaratilayotgan imkoniyat va cheksiz ishonch tufaylidir. Korrupsiya ildizi qanchalik qirqilsa, chekka qishloqlardagi ulkan iste'dodlar shuncha gurkirab, Vatanimiz bayrog'i ko'kda hilpirayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma'lumotnomasidan;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan. // "Xalq so'zi" 2018-yil 7-dekabr;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-y, 5-son
4. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilingan ma'ruzadan. // "Xalq so'zi" 2018-yil 7-dekabr.